



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING MATEMATIK SAVODXONLIGINI OSHIRISH

Maftunaxon Xamdamova¹

¹ Farg'ona davlat universiteti, Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim

Fakulteti Boshlang'ich ta'lim va STI yo'nalishi III bosqich
19.39B guruhi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5813693>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 20-Dekabr 2021

Ma'qullandi: 25-Dekabr 2021

Chop etildi: 30-Dekabr 2021

KALIT SO'ZLAR

matiqiy fikrlash, tanqidiy fikrlash, topshiriqlar, matematik qobiliyatlarini o'stirish, diagrammalar, xalqaro tadqiqotlar.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematika darslarida mantiqiy va tanqidiy fikrlashlarini rivojlantirishga doir topshiriqlari bilan ishlashga o'rgatish usullari yoritilgan.

Xalqaro ta'lim yutuqlarini baholash assotsiatsiyasi TIMSS dasturi o'zining birinchi tadqiqotini 1995-yilda boshlagan bo'lib, 2019-yilga qadar har to'rt yilda 1999, 2003, 2007, 2011, 2015 va 2019-yillarda tashkil etib kelindi. Navbatdagi 8-davriylik 2023-yilda amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Har 4 yil davomida 4- va 8-sinf o'quvchilarining ta'lim yutuqlariga baho berib boriladi va shu bilan birga, nafaqat ularining bilim va ko'nikmasi, balki ularning ushbu fanlarga bo'lgan munosabati, qiziqishi, hamda ta'limga bo'lgan motivatsiyasini solishirishga imkon beradi. Tadqiqotning asosiy rejasi: 4 yil davomida 4-sinf o'quvchisi 8-sinfga yetgunga qadar uning matematika va tabiiy fanlar bilimining natijalari kuzatib boriladi.

Qo'shimcha ravishda maktablarda matematika va tabiiy fanlar bo'yicha berilayotgan ta'lim mazmuni, o'quv jarayoni, ta'lim muassasasining imkoniyatlari, o'qituvchilar salohiyati, o'quvchilarning oilalari bilan bog'liq omillari o'rganiladi.

Dasturda qatnashayotgan davlatlar soni ham tobora ortib bormoqda. TIMSS 2015 ning tadqiqot natijalariga qaralganda AQSh, Singapur, Gongkong, Koreya Respublikasi, Yaponoya, Rossiya, Buyuk Britaniya kabi davlatlarning ta'lim tizimi eng yuqori ko'rsatkichlarni egallaganligiga guvoh bo'lamiz. O'zbekiston TIMSS va boshqa xalqaro tadqiqotlarda qatnashish orqali rivojlangan mamlakatlar tajribalarini



O'zbekiston ta'lim tizimida qo'llash, o'z natijalarini boshqa davlatlar natijalari bilan qiyosiy taqqoslash imkoniyatlariga ega bo'ladi.

TIMSS yordamida o'quvchilarning ta'limiy yutuqlari: bilish, qo'llash, mulohaza yuritishi baholanadi. "Bilish" bo'limi o'z ichiga matematikadan masalalar yechishni olgan bo'lib, masalalar yechish o'quvchilardan sonlarning xususiyatlari va oddiy geometrik jismlar haqidagi nazariy bilimlar, ta'riflarni takroran aytib berish, standart grafik va diagrammalardan ma'lumot olishni o'z ichiga qamrab oladi. "Qo'llash" ga oid test topshiriqlarini bajarishda o'quvchilar hayotiy vaziyatlarni o'zida aks ettiradigan matematik va tabiiy-ilmiy masalalarni yechish, jadval, sxema,


diagramma, grafiklarni talqin qilish, tajribalarni o'tkazish ko'nikmalarini namoyish etishlari zarur. "Mulohaza yuritish" ga oid topshiriqlar o'quvchilarning mantiqiy va tizimli fikrlash malakalarini aniqlaydi. Mulohaza yuritishni talab etadigan masalalar taklif etilayotgan vaziyatning yangiligi, savolning murakkabligi, yechish bosqichlari sonining ko'pligi, turli bo'limlardan bilimlarni integratsiyalashning zarurligi bilan bir-biridan farqlanishi mumkin.

Boshlang'ich sinfda o'quvchilarning matematika fanidan quyidagi test topshiriqlarini bajarish orqali ularning matematik savodxonliklarini oshirish mumkin.

1- Topshiriq. Quyidagi nisbatlardan qaysi biri 1:4 nisbatga teng?

- a) 4:16 b) 4:7 c) 4:5 d) 4:1

2- Topshiriq



Kaptiva avtomobili 46 ta ot kuchiga ega. Agar Cobalt avtomobilining ot kuchi undan 16 marta ko'p ; Lacetti avtomobili esa 1-sidan 26 ta ko'p bo'lsa 2- va 3-avtomobillarning ot kuchi qancha?

- a) 736; 302 b) 730; 308 c) 745; 309 d) 802; 300

3- topshiriq

Qaysi kasr qolgan kasrlarga teng emas?

- a) $\frac{1}{2}$ b) $\frac{4}{8}$ c) $\frac{2}{4}$ d) $\frac{2}{8}$

4- topshiriq. 9×22 ga eng yaqin bo'lgan javob qaysi?

- 5x20 b) 5x25 c) 10x20 d) 10x25

5- topshiriq. Tenglik tog'ri bo'lishi uchun bo'sh joyga qaysi son yozilishi



kerak? $3+8= _ + 6$

- a) 17 b)11 c)7 d)5

6- topshiriq. Qaysi sonda 4 raqami 40 ni bildiradi?

1. 1468 b)473 c)1249 d)2674

7- topshiriq. Tort 8 ta bo'lakka kesildi. Ra'no tortning 2 ta bo'lagini yedi. Ra'no tortning qancha qismini yegan?

Javob: _____

8- topshiriq. Tenglik o'rinli bo'lishi uchun bo'sh joy o'rniga qanday raqam qo'yilishi kerak?

$7x _ = 28$

Javob: _____


9- topshiriq. Anvarda 15 ta qalam bor edi. U bir nechta qalamni Sobirga berdi va unda 9 ta qalam qoldi. Qaysi sonli ifoda nima sodir bo'lganligini to'g'ri tasvirlaydi?

- a) $15+9 = _$
b) $9= 14+ _$
c) $15- _ = 9$
d) $9x _ = 15$

10 - topshiriq. Qaysi kasr $\frac{1}{2}$ ga teng?

- a) $\frac{3}{5}$ b) $\frac{3}{6}$ c) $\frac{3}{10}$ d) $\frac{3}{8}$

11- topshiriq



$AB= 123 \text{ mm}$

$AC=63 \text{ mm}$

CD - ?

- a) 103 mm b) 60 mm c) 43 mm d) 57 mm

12-topshiriq. Bo'sh joyga qaysi raqam qo'yilsa, tenglik to'g'ri bo'ladi?

$3607= _ + 600 + 7$

- a) 300 b) 3 c) 3000 d) 30



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. L O'rinboyeva, M Jumayev, N Ruzikulova, U Raxmonov, Sh Ismailov, N Ismailova, N Usmanova. Umumiy o'rta ta'lim maktabining 1-sinf uchun darsligi. Toshkent -2021
2. L O'rinboyeva, M Jumayev, N Ruzikulova, U Raxmonov, Sh Ismailov, N Ismailova, N Usmanova. Umumiy o'rta ta'lim maktabining 2-sinf uchun darsligi. Toshkent -2021
3. Burxonov S., Xudayorov O'., Norqulova Q., Ruzikulova N., G'oibova L. Matematika. 3-sinf uchun darslik. "Sharq". Toshkent-2019.
4. Bikbayeva N., Yangabayeva E., Girfanova K.M. Matematika. 4-sinf uchun darslik. "O'qituvchi". Toshkent-2017.
5. Bikbayeva N.U., Sidelnikova R.I., Adambekova G.A. "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi" darslik. "O'qituvchi". Toshkent-1996.
6. Jumayev M.E., "Matematika o'qitish metodikasidan praktikum" o'quv qo'llanma. "O'qituvchi". Toshkent-2004.
7. M.Ahmedov, N.Abdurahmonova, M.Jumayev. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1- sinfi uchun darslik «Turon-iqbol» Toshkent – 2018
8. Истомина, Н.Б., "Математика" Учебник для 4 класса Смоленскую Ассоциация XXI век 2015
9. Истомина, Н.Б. Методика обучения математике в начальных классах : учебное пособие для студентов ф-тов подготовки учителей нач. кл. пед. ин-тов, колледжей и училищ
10. [Текст] / Н.Б. Истомина. – М. : линка-пресс, 1997.
11. Истомина, Н.Б. Работа над составной задачей. [Текст] / Н.Б. Истомина // Начальная школа. – 1988.№2.
12. Elektron ta'lim resurslari
13. www.pedagog.uz
14. www.edu.uz